



SHUM BOLA — HAYOT MAKTABIDAN O'TGAN QAHRAMON

Zaribboyeva Ruxshona

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19044162>

Abstract: Literary works depicting the lives and inner worlds of children hold a significant place in Uzbek literature. Among them is the novella "Shum bola" (The Mischievous Boy) by the prominent writer Gafur Gulom, which occupies a special position in both national and world literature. This article examines the social and spiritual challenges of the early twentieth century as portrayed in the novella, focusing on themes of childhood mischief, life struggles, and the issue of social inequality within society.

Keywords: Gafur Gulom, mahalla, poverty, school of life, protagonist, children's literature.

Аннотация: Произведения, отражающие жизнь детей и их внутренний мир, занимают значительное место в узбекской литературе. Одним из таких шедевров является повесть Гафура Гуляма «Озорник» (Shum bola), признанная как в отечественной, так и в мировой литературе. В данной статье анализируются социальные и духовные проблемы начала XX века, отраженные в повести, а также детская непосредственность, жизненные испытания и вопросы социального неравенства в обществе.

Ключевые слова: Гафур Гулям, махалля, бедность, школа жизни, главный герой, детская литература.

G'afur G'ulom o'zbek adabiyotida serqirra ijodi bilan ajralib turuvchi adiblardan biri hisoblanadi. Uning barcha ijobiy namunalari kitobxon uchun juda qadrlil va yuksak ma'naviy-ma'rifiy ruhiyatga ega asarlardir. G'afur G'ulomning mashhurlikiga sabab bo'lgan asarlar to'plami anchaginani tashkil etsada, lekin uning ijodida "Shum bola" qissasi alohida o'rin egallaydi. 1936-yilda yozilgan ushbu qissa nafaqat o'zbek adabiyotining durdonalaridan biri, balki jahon miqyosida ham e'tirof etilgan asardir. Jumladan, 2023-yilda "Shum bola" qissasi BBC nashri tomonidan barcha davrlarning eng yaxshi **top-100 bolalar kitoblari** ro'yxatiga kiritildi. Shuningdek, 1977-yilda asar asosida suratga olingan "**Shum bola**" filmi ham o'zbek va xorijiy kino tanqidchilari tomonidan yuksak baholangan. Qissaning ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilinishi esa uning umuminsoniy g'oyalarini yana bir bor tasdiqlaydi.

"Shum bola" qissasida bosh qahramoni Qoravoyning bolalik davri quvonchdan ko'ra ko'proq qiyinchiliklar bilan tasvirlanadi. Yetimlik, qashshoqlik va mehrga tashnalik Shum bolaning hayotidagi asosiy sinovlardir. U juda erta mustaqil bo'lishga, hayotning achchiq haqiqatlarini tan olishga majbur bo'ladi.





Masalan, Qoravoyning boy otaning xizmatiga yollangani, taxminan bir oy to'qqiz kun ishlab, hanuzgacha yigirma ikki tiyin choychaqasini ololmayotgani, uning evaziga qurt yegan olmalarni berishi ham o'sha davrdagi odamlarning og'ir kunlaridan dalolat beradi. Hayot Shum bolani maktabda emas, ko'chada, odamlar orasida tarbiyalaydi. Aynan shu "hayot maktabi" uni pishitadi, bardoshli va chaqqon qilib tarbiyalaydi. Adib shu orqali bolalik davri faqat beg'uborlik emas, balki sinovlar davri ham ekanini ko'rsatadi.

Qoravoy qanchalik yosh bo'lmasin, u hayotiy vaziyatlardan to'g'ri xulosa chiqara oladigan, topqir va chaqqon qahramon sifatida namoyon bo'ladi. U duch kelgan muammolardan qochmaydi, balki ularga moslashadi. Har bir xato va sinov uning xarakterini shakllantiradi. Shum bola uchun hayot — doimiy kurash. Ana shu kurash jarayonida u jasorat, qat'iyat va sabr-toqatni o'rganadi. Bu jihatdan u oddiy sho'x bola emas, balki hayot maktabidan o'tgan yetuk obrazdir.

Xalqimiz orasida keng tarqalgan "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan naql bolalar tarbiyasida jamiyatning o'rni naqadar muhim ekanini anglatadi. "Shum bola" qissasida ham ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik va kattalarning befarqligi qahramon hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatgani yaqqol ko'rinadi. Adib bu orqali bolaning kelajagi uning shaxsiy xatti-harakatlaridan ko'ra, uni o'rab turgan muhitga chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. G'afur G'ulom bolani ayblamaydi, balki uni shunday holatga solgan muhitni tanqid qiladi. Bu esa asarning tarbiyaviy ahamiyatini yanada yuksak darajada tasvirlangan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Vaqt o'tib yoshi ulg'aygan sari Shum bola ham tobora ko'proq oila tashvishi, beva onasi va singillarini o'ylaydigan, ularga yordam berish burchi bilan ruhan qiynaladigan bo'lib qoladi: "Onam sho'rlikning beva kambag'al ro'zg'origa jodiday jag' bilan borishim o'zimga ham o'ng'aysiz, ularning ham menga ko'zlari uchib turmagan bo'lsa kerak... Beva onamni, yetimcha singillarimni ko'p o'ylayman, ichim achishadi. Nega men bunday noshud bola bo'ldim, kimga bo'lsa ham shogirdmi, yugurdakmi bo'lishim kerak, biror nima topib onamga qarashib yuborishim kerakku, deyman, O'kinaman, o'z-o'zimni koyiymen, ba'zan-ba'zan yig'lab qo'yaman. Ammo shu holda uyga qaytish qiyin". Asardagi qahramonlarning ko'proq turmushga intilishini tabiiy insoniy xislat deb baholash lozim. Qoravoyning boshidan kechirgan sarguzashtlari uni tajriba orttirishiga, hayot sinovlariga bardoshli bo'lib voyaga yetishi uchun asosiy sabablardan biri desak adashmagan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, "Shum bola" qissasidagi bosh qahramon Qoravoy hayotning og'ir sinovlaridan o'tib, chiniqqan, saboq olgan va o'quvchini





o'ylantiradigan obrazdir. G'afur G'ulom bu asar orqali bolalik, tarbiya va jamiyat muammolarini yumor vositasida chuqur ochib bergan. Shum bola obrazi hayot maktabidan o'tgan qahramon sifatida o'zbek adabiyotida muhim o'rin egallaydi va bugungi kitobxon uchun ham ibrat manbai bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'. G'ulom. Tanlangan asarlar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2012.
2. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 10-jild. Tarjimalar.
3. G'afur G'ulom. Shum bola qissasi. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 6 tom. –T.: Fan, 1986

